

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

AKADEMIK KENGASHNING 1-MAJLISI BAYONNOMASI

2024-yil 28-avgust

Toshkent – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
ILMIY KENGASH MAJLISI
1-BAYONNOMASI

№ 2024/25 – 1

2024-yil 28-avgust, soat 14:15.

Majlis joyi: Universitet Tadbirlar zali (B-bino, 103).

Qatnashganlar: S.Safojev (Ilmiy kengash raisi), N.Nugmanov (Ilmiy kotib), A.Umarov, G.Ismailova, O.Yusupdjanov, A.Turdimatov, K.Dalimov, Sh.Abdullayev, A.Xaydarov, M.Xamdamov, U.Yakubxodjayev, Sh.Arapov, L.Xodjayev, O.Mannopova, I.Xamedov, N.Sirajiddinov, I.Mavlanov, M.Baqoyev, E.Sultanova, G.Raimova, U.Sharipova, L.Tashpulatova, Sh.Masadikov, M.Abduraxmanova, R.Yusufaliyeva, Ye.Borisova, V.Mamatkasimova, X.Gafurova, B.Xasanov, N.Muminova, F.Tashev, Sh.Shakirova, U.Dustov, M.Sheraliyev, T.Raximov, M. Siddikova.

Qatnashmadilar: S. Saidkasimov, B. Salaxitdinov, A. Nasirov

KUN TARTIBI:

Masala T/r	Mazmuni	Taqdimotchi mas'ullar	va	Hujjat kodi
1-1	JIDU 2024-2025 o'quv yiliga tayyorgarlik va o'quv-uslubiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida	JIDU prorektori A.Umarov	birinchi	A
1-2	Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati samaradorligini baholash (KPI) mezonlari tasdiqlash to'g'risida	JIDU prorektori A.Umarov	birinchi	B
1-3	Xorijiy Scopus/Web of Science tizimlarda maqola chop etganlik bo'yicha pul miqdorini belgilash to'g'risida	JIDU prorektori G.Ismailova		C
1-4	JIDU Ilmiy Kengashi Nizomini (yangi tahrirda) tasdiqlash	Ilmiy Kengash kotibi N.Nugmanov		D

1-5	“Oliy ta’lim a’lochisi” hamda akademik litseydan “O’rta-maxsus va professional ta’lim a’lochisi” ko’krak nishonlari bilan taqdirlash uchun nomzodlarni tasdiqlash to’g’risida	JIDU prorektori G.Ismailova	E
	Turli masalalar		

1-1 Masala. JIDU 2024-2025 o’quv yiliga tayyorgarlik va o’quv-uslubiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida

ESHITILDI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan universitetning o’quv ishlari bo’yicha birinchi prorektori A.Umarov so’zga chiqib, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida 2024-2025 o’quv yiliga tayyorgarlik yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida so’z yuritdi. Jumladan, yangi ishlab chiqilgan JIDU Akademik nizomi, 2024/2025-o’quv yili uchun ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejalari, Akademik kalendar, Moodle-2024 elektron tizimi, 2024/2025-o’quv yilida fanlarga ajratilgan kreditlar miqdorlari, akademik guruhlar tuzilganligi, 3-kursda barcha darslar ingliz tilida olib boriladigan guruhlar shakllantirilganligi haqida batafsil ma’lumot berdi. Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash a’zolari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni tinglab va muhokama qilib, Ilmiy kengash majlisi

QAROR QILINDI:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o’quv ishlari bo’yicha birinchi prorektori A.Umarovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik nizomi 1-ilovaga, 2024/2025 o’quv yili uchun ishlab chiqilgan o’quv rejalari 2-ilovaga, Akademik kalendar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2024/2025 o’quv yilida professor-o’qituvchilarning o’rtacha o’quv yuklamasi hajmi 700 soat etib belgilansin. Bunda auditoriya soatlari professorga 200-250, dotsentga 300-350, katta o’qituvchiga 400-450, o’qituvchiga 450-500, shogird-o’qituvchiga 500-550 soat etib belgilansin.

3. Ilmiy kengashning mazkur qarori ijrosi ustidan nazorat o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor A. Umarov zimmasiga yuklansin.

1-2 Masala. Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati samaradorligini baholash (KPI) mezonlari tasdiqlash to'g'risida

ESHITILDI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan universitetning o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori A.Umarov so'zga chiqib, Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati samaradorligini baholash (KPI) mezonlari bo'yicha so'z yuritdi. Jumladan, yangi ishlab chiqilgan samaradorlik mezoni universitetning har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash faoliyati jarayonida o'rnak ko'rsatgan, yuqori kasb mahoratiga ega bo'lgan, o'z xizmat majburiyatlarini halol va faol amalga oshirganligi uchun o'quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga hissa qo'shayotgan pedagog xodimlar uchun shakllantirilganligi haqida batafsil ma'lumot berdi. Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash a'zolari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni tinglab va muhokama qilib, Ilmiy kengash majlisi

QAROR QILINDI:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori A.Umarovning professor-o'qituvchilarining ilmiy faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichi (KPI) ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Professor-o'qituvchilarining ilmiy faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkich (KPI) mezonlari to'g'ri yo'lga qo'yilishi taminlansin.

3. Ilmiy kengashning mazkur qarori ijrosi ustidan nazorat o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor A. Umarov zimmasiga yuklansin.

1-3 Masala. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga xorijiy Scopus/Web of Science tizimlarda maqola chop etganlik bo'yicha pul miqdorini belgilash to'g'risida

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.08.2008 yildagi 169-son "Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibini

takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni samarali bajarish maqsadida bir qator vazifalar haqida so'zlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarorining maqsadli ko'rsatgichlarini bajarish uchun professor-o'qituvchilar va xodimlarga **Scopus/Web of Science haqiqiy tizimida chop etilgan har bir maqola uchun bir martalik rag'batlantirish to'lov** amalga oshiriladi.

To'lovlar Universitetning asosiy shtatdagi hamda o'rindosh asosida ishlovchi professor-o'qituvchilar va xodimlar bir maqola uchun bir marta to'lanadi. Muallif maqolani chop etishida universitet to'liq nomini va korporativ pochta-sini (@uwed.uz) ko'rsatishi lozim.

JIDU professor-o'qituvchisi "Fan va innovatsiyalar bo'limi"ga murojaat etadi, bo'lim o'z navbatida chop etilgan maqolaning Scopus/Web of Science ilmiy ma'lumotlar bazalarida indekslanganligi haqiqiylikini tekshiradi va Ilmiy muvofiqlashtirish kengashi ishchi guruhiga masalani kiritadi. Ishchi guruh Scopus/Web of Science ilmiy ma'lumotlar bazalarida indekslanganligi haqiqiylikini tasdiqlaganda Ilmiy muvofiqlashtirish kengashi kollegial qarori bilan to'lovga kiritish masalasi JIDU rektori buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Maqolalarning rag'batlantirish miqdorlari quyidagicha belgilansin:

No	Ilmiy bazaning nomi	To'lov miqdori (so'm)
1	Web of Science SSCI, SCIE-Q1/ Scopus Q1	12.000000
2	Web of Science SSCI, SCIE-Q2/ Scopus Q2	10.000000
3	Web of Science SSCI, SCIE-Q3/ Scopus Q3	5.000000
4	Web of Science SSCI, SCIE-Q4/Scopus Q4	3.500000
5	Scopus/Web of Science (book chapter)	3.000000

Scopus/Web of Science ilmiy ma'lumotlar bazalarida mualliflar jamoasi tomonidan chop etilgan maqola rag'batlantirish to'lovi mualliflar orasida teng taqsimlanadi.

Scopus/Web of Science ilmiy ma'lumotlar bazalarida chop etilgan maqola uchun to'lov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1030-sonli Qaroridan holi alohida qo'shimcha ko'rib chiqiladi.

Maqola "yirtqich" jurnalda chop etilsa, jurnal Scopus/Web of Science ilmiy bazalarida Indekslanishdan to'lov amalga oshirilgan sanadan 1 yil davomida to'xtatilsa yoki jurnal tahriryati tomonidan maqolaga "Qaytarilish eslatmasi" (Retraction Note) e'lon qilinsa to'lov to'liqligicha universitet hisobiga qaytariladi.

QAROR QILINDI:

1. Professor-o'qituvchilarga Scopus/Web of Science haqiqiy tizimida chop etilgan har bir maqola uchun bir martalik rag'batlantirish to'lov amalga oshirilinsin.
2. Maqolalarning rag'batlantirish miqdorlari jadval asosida to'lansin.
3. Mazkur qaror ijrosining nazorati prorektor G.Ismailovaga yuklatilsin.

1-4 masala. JIDU Ilmiy Kengashi Nizomini (yangi tahrirda) tasdiqlash to'risida

ESHITILDI:

Ilmiy kotib N.Nugmanov so'zga chiqib, JIDU Ilmiy Kengashi Nizomini (yangi tahrirda) tasdiqlash va ushbu yangi tahrirdagi Nizomga asosan Ilmiy Kengash nomlanishini Akademik Kengashga o'zgartirish taklif etildi. Bundan tashqari Akademik Kengash Umumiy qoidalari, Akademik Kengashning maqsad va vazifalari, Akademik Kengash faoliyatini tashkil etish masalalari haqida ma'lumot berildi. Ilmiy Kengash

QAROR QILINDI:

1. JIDU Akademik Kengashining yangi tahrirdagi Nizomi qabul qilinsin.
2. JIDU Akademik Kengashining yangi tahrirdagi Nizom ijrosi Ilmiy Kengash kotibi N.Nugmanov zimmasiga yuklatilsin.

1-5 masala. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Oliy ta'lim a'lochisi" hamda akademik litseydan "O'rta-maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlash uchun nomzodlarni tavsiya qilish to'g'risida

ESHITILDI:

Ilmiy kengash raisi S.Safoyev nomzodlarning saylovoldi dasturlari bilan tanishi ovoz berish mezonlari ekanligini ta'kidladi. Nomzodlarning dasturlari taqdimoti ekranda havola etildi.

Ilmiy kengash a'zolari "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun tavsiya etilgan Raimova Gulnora Mirvalievna hamda "O'rta-maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun tavsiya etilgan Zakirova Nargiza Djurayevna nomzodini tasdiqlashni yoqlab so'rovnoma asosida ovoz berdilar va bir ovozdan ma'qulladilar

QAROR QILINDI:


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim a'lochisi" hamda "O'rta maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlarini ta'sis etish to'g'risida"gi 616-sonli qaroriga muvofiq, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Ilmiy kengashi qaror qiladi:

1. "Tizimli tahlil va matematik modellash" kafedrasini mudiri **Raimova Gulnora Mirvalievna** "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoniga hamda JIDU Akademik litseyi nemis tili fani bosh o'qituvchisi **Zakirova Nargiza Djurayevna** "O'rta-maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun tavsiya etilsin.

2. Nomzodlar Raimova G.M. va N.D.Zakirova to'g'risidagi ma'lumotlar o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuborilsin.


3. Ilmiy kengashning mazkur qarori ijrosi nazorati Universitet O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori A.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

Ilmiy kengash raisi



S. Safoyev

Ilmiy kengash kotibi



N. Nugmanov